

## O‘ZBEK SHE’RIYATINI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI (ZULFIYA ISROILOVANING “MEN O‘TGAN UMRGA...” SHE’RI MISOLIDA)

**Nigora Jaloliddinova,**  
Namangan davlat chet tillari instituti  
[jaloliddinovan18@gmail.com](mailto:jaloliddinovan18@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining yorqin vakilasi Zulfiya Isroilova she’rlarini ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar va ularning yechimlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida so‘z tanlash, she’riy ohang va ruh saqlanishi, arxaik uslub qo‘llash, idiomalardan foydalanish, hamda so‘zma-so‘z tarjimadan qochish masalalari “Men o‘tgan umrga...” she’ri tahlili orqali yoritiladi. Har bir misraning o‘zbek va inglizcha variantlari qiyoslanib, tarjima qarorlarining asoslari bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarjima, she’riyat, Zulfiya, ingliz tili, she’riy ruh, so‘z tanlash, arxaik uslub, idioma.

**Abstract.** This article presents a scholarly and practical analysis of the challenges involved in translating the poems of Zulfiya Isroilova, a prominent representative of Uzbek poetry, into English, as well as the possible solutions to these challenges. In the translation process, issues such as word choice, preservation of poetic tone and spirit, use of archaic style, employment of idiomatic expressions, and avoidance of literal translation are explored through the analysis of the poem “Men o‘tgan umrga...”. The Uzbek and English versions of each line are compared, and the foundations of the translation decisions are explained.

**Keywords:** translation, poetry, Zulfiya, English language, poetic spirit, word choice, archaic style, idiom.

**Аннотация.** В данной статье проводится научно-практический анализ проблем перевода стихотворений Зульфийи Исроиловой – яркого представителя узбекской поэзии – на английский язык, а также путей их решения. В процессе перевода рассматриваются вопросы выбора слов, сохранения поэтического тона и духа, использования архаического стиля, применения идиоматических выражений, а также избегания дословного перевода на примере анализа стихотворения “Men o‘tgan umrga...”. Узбекские и английские варианты каждой строки сопоставляются, а также излагаются основания принятых переводческих решений.

**Ключевые слова:** перевод, поэзия, Зульфийа, английский язык, поэтический дух, выбор слова, архаичный стиль, idioma.

**Kirish.** She’r tarjimasini – adabiy tarjimaning eng murakkab va mas’uliyatli turi hisoblanadi. Oddiy matn tarjimasida so‘zning lug‘aviy ma’nosini yetkazish yetarli bo‘lsa-da, she’riy tarjimada bu faqat boshlang‘ich talabdir. She’rning asl ruhi, hissi, ohangi, ritmi va obrazli tili – bularning barchasi tarjimada saqlanishi lozim. Ayni shu murakkablik she’r tarjimasini o‘ziga xos san’at darajasiga ko‘taradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Amerikalik shoir Robert Frost she’rni “tarjimada yo‘qoladigan narsa” deb ta’riflagan. Bu ta’rif she’r tarjimasining qanchalik murakkab ekanini lo‘nda ifodalaydi. O‘zbek she’riyatini ingliz tiliga tarjima qilishda esa qo‘shimcha qiyinchiliklar paydo bo‘ladi: ikki til orasidagi grammatik, leksik va madaniy farqlar, fe’l zamonlarining farqli ishlatilishi, o‘zbek tilida mavjud bo‘lib, inglizchada o‘xshashi yo‘q so‘zlar.

Ushbu maqola o'zbek sovet adabiyotining ulkan namoyandalaridan biri, zabardast shoira Zulfiya Isroilovanning she'riyati misolida shu muammolarni va ularning amaliy yechimlarini tahlil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materialini sifatida Zulfiya Isroilovanning "Men o'tgan umrga..." she'ri hamda uning inglizcha tarjima variantlari tanlanib, misralar leksik-semantik, stilistik va pragmatik jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Tarjima jarayonida qo'llangan poetik transformatsiyalar, arxaik birliklar, idiomatik ifodalar va grammatik vositalarning she'riy ruhni saqlashdagi funksiyasi tarjimashunoslik nazariyalari asosida ilmiy jihatdan baholandi.

**Tahlillar va natijalar.** Zulfiyaxonimning asarlari o'zbek qalbining eng nozik ifodasini, ayol ruhining erkinligi va hayotga muhabbatni aks ettiradi. Aynan shu chuqurlik va o'ziga xoslik uning she'rlarini ingliz tiliga tarjima qilishni alohida qiziqarli va murakkab qiladi.

*Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.  
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,  
Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydin.*

*Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.  
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.*

*Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:*

*Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,*

*Izzat nima – bildim.*

*Shu-da bir yashash!..*

#### **SHE'RIY BANDLAR TAHLILI**

*Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.  
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,  
Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydin.*

*Leafing through the book of my life, unconsciously,  
I bore no sorrow for all my bygone years.  
Instead of smiling, I laughed radiantly,  
When it comes to love, I fell head over heels.*

**“Bexos varaqlab” – “leafing through... unconsciously”:** Birinchi misradagi asosiy muammo “bexos” soʻzini tarjima qilishda yuzaga keldi. “Bexos” – “bilmagan holda”, “anglamay”, “oʻylamasdan” maʼnolarini bildiradi. Dastlab, “unconsciously” soʻzi psixologik atama sifatida boshqacha talqin qilinishi mumkin deb shubhalanildi. Biroq sheʼriy kontekstda “unconsciously” aynan “oʻylamasdan, bilmagan holda” maʼnosini toʻliq ifodalaydi. “Varaqlab” soʻzi uchun esa “leafing through” iborasi tanlandi – ingliz tilida keng qoʻllaniladigan idiom boʻlib, sheʼriy jihatdan ham toʻliq mos keladi.

**“Achinmay qoʻydim” – “I bore no sorrow”:** Bu misrada feʼl zamonini toʻgʻri tanlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “I felt no sorrow” (oddiy oʻtgan zamon) va “I bore no sorrow” (arxaik shakl) variantlari qiyoslandi. “Bore” – ingliz sheʼriyatining klassik shaklida keng qoʻllaniladigan arxaik feʼl. Zulfiyaxonimning sheʼri klassik oʻzbek adabiyoti anʼanalarida yozilgani inobatga olinsa, arxaik ingliz shakli matn ruhiga koʻproq mos keladi. “Bygone years” iborasi ham aynan shu sababdan tanlandi – “past years” – oddiy varianti sheʼriy jihatdan zaifroq edi.

**“Tabassum oʻrnida” – “Instead of smiling”:** “Oʻrnida” soʻzi oʻzbek tilida “instead of” va “in the place of” maʼnolarini beradi. “In the place of smiling” soʻzma-soʻz tarjimaga yaqin boʻlsa-da, sheʼriyatda bu variant ogʻir va sunʼiy chiqadi. “Instead of smiling” esa tabiiy, oqimli va sheʼriy jihatdan mukammal. Bu holat sheʼr tarjimasida maʼnoga sodiqlik shakliga sodiqlikdan muhimroq ekanligini yaqqol koʻrsatadi.

**“Charaqlab kuldim” – “I laughed radiantly”:** “Charaqlab” soʻzi yorqinlik, nur sachrash, toʻliq quvonch maʼnolarini oʻz ichiga oladi. “Radiant” odatda inglizchada “smile” bilan qoʻllanadi, shuning uchun “laughed radiantly” noodatiy birikma tuyulishi mumkin. Biroq sheʼriyatda anʼanaviy birikmalardan ijodiy chetlashish maqbul – hatto istalgan. Aynan shu kutilmagan birikma “charaqlab”ning oʻziga xos yorqinligini inglizchada ham ifodalab berdi.

**“Telbacha suydim” – “I fell head over heels”:** “Telbacha” soʻzini tarjima qilish eng qiziqarli vazifa boʻldi. “I loved madly” yoki “I loved insanely” variantlari mavjud boʻlsa-da, “fell head over heels” idiomasi tanlandi. Bu ibora ingliz tilida “jonini fido qilib, toʻliq berilish bilan sevmok” maʼnosini anglatadi va “telbacha” soʻzining ruhini eng toʻliq ifodalaydi. Feʼl zamoniga kelsak, dastlab, “I fall” hozirgi zamonda qoʻllanildi. Keyinchalik “I fell” shaklida tuzatildi – butun band oʻtgan zamonda yozilgani uchun izchillik saqlanishi lozim edi.

*Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.*

*Meni og‘ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo‘shiq talab unda har saboq.*

*Whether I wore silk, calico or brocade,  
I gave no heed, for my heart’s wealth.  
Life that enfolded me, precisely sol,  
Each epiphany bids a new verse.*

**“Ipak, chit, kimxob” – “silk, calico, brocade”:** Uchta mato nomini tarjima qilishda har birining o‘ziga xos anglashilishi e‘tiborga olindi. *“Ipak”* – *“silk”* aniq va to‘g‘ri. *“Chit”* – paxtadan to‘qilgan oddiy, arzon mato. Inglizchada *“cotton”* umumiy ma‘noni bersa, *“calico”* so‘zi to‘liq mos keladi: bu ham arzon, oddiy paxta mato bo‘lib, ingliz klassik she‘riyatida keng qo‘llaniladi. *“Kimxob”* – ipak ustiga oltin yoki kumush ip bilan to‘qilgan hashamatli mato. *“Brocade”* inglizchada aynan shunday matoni anglatadi.

**“Kiyganim” – “I wore”:** *“Kiyganim”* so‘zi aslida o‘tgan zamoni bildiradi. *“I wore”* (Simple Past) va *“I have worn”* (Present Perfect) variantlari ko‘rib chiqildi. Ulardan *“I wore”* tanlandi, chunki bu tugallangan, aniq o‘tgan zamon – *“kiyganim”* so‘zining grammatik mohiyatiga to‘liq mos keladi.

**“Whether” yoki “be it”:** Misra boshida *“Whether I wore”* va *“Be it silk”* variantlari taqqoslandi. *“Whether”* misrada savol-ikkilanish ohangini beradi – xuddi asl she‘rdagi *“ipakmi, chitmi yo kimxob”* dagi *“mi”* qo‘shimchasi kabi. *“Be it”* esa arxaik, she‘riy shakl, lekin bu savol ohangini yo‘qotadi. Shuning uchun *“Whether”* tanlandi.

**“Yurak boyligidan qilmabman parvo” – “I gave no heed, for my heart’s wealth”:** Bu misrani tarjima qilishda *“for”* va *“to”* ko‘makchilari orasida tanlov qilish kerak bo‘ldi. *“I gave no heed to my heart’s wealth”* – yurak boyligiga parvo qilmadim ma‘nosini beradi. *“I gave no heed, for my heart’s wealth”* esa – yuragim boy bo‘lgani uchun parvo qilmadim, ya‘ni sabab ma‘nosini ifodalaydi. Asl she‘r ikkinchi ma‘noda – hayotning moddiy tomoniga emas, ichki boylikka tayanib yashash falsafasi. Shuning uchun *“for”* to‘g‘ri tanlov bo‘ldi. *“Gave no heed”* iborasi esa *“parvo qilmaslik”* ma‘nosini beruvchi klassik arxaik birlikma bo‘lib, she‘rga juda mos keladi.

**“Meni og‘ushlagan hayot”** – hayot insonni quchoqlab olishi obrazi. *“Enfolded”* so‘zi *“embrace”* dan chuqurroq – to‘liq o‘rab olish, bag‘riga olish ma‘nosini beradi, arxaik va she‘riy. *“Precisely”* – “naq”, “aynan” ma‘nosida, she‘rda og‘ir emas, balki ta‘kidlash vazifasini bajaradi. *“Sol”* – “oftob” ning she‘riy inglizcha ifodasi. Oddiy *“sun”* so‘zi *“oftob”* ning yuksakligini bermaydi. *“Sol”* arxaik va she‘riy bo‘lib, aynan *“oftob”* dagi nurli, ulug‘vor ma‘noni ifodalaydi.

**“Each epiphany bids a new verse”:** *“Har saboq yangi qo‘shiq talab qiladi”* ma‘nosidagi misra. *“Lesson”* o‘rniga *“epiphany”* tanlandi – chunki *“saboq”* bu yerda oddiy dars emas, balki hayotdan olingan chuqur anglash, kashfiyot. *“Epiphany”* aynan shu

ma'noni beradi. "*Bids*" – arxaik inglizchada "*talab qiladi, buyuradi*" ma'nosida, Shekspir davridan qo'llaniladi. "*Verse*" – "*qo'shiq*" ning she'riy ifodasi, "*song*" dan ko'ra she'riy janrga ko'proq mos.

*I bore no sorrow for all my bygone years,*

*No life have I seen like mine:*

*I loved,*

*I was cherished,*

*I was parted,*

*I smoldered,*

*I knew what dignity is –*

*That is what living is.*

**Bandning tuzilishi:** Uchinchi band oldingi ikki banddan keskin farq qiladi – misralar qisqa, bir fe'lli, keskin. Bu tuzilish ataylab tanlangan: hayotning eng muhim lahzalari – sevgi, mehr, ayriliq, iztirob, qadr – qisqa, aniq, zarb bilan ifodalangan. Bu she'riy texnika inglizchada ham to'liq saqlanib qoldi.

**"I bore no sorrow" – ko'prik sifatida:** Uchinchi band birinchi band bilan bir xil misra bilan boshlanadi. Bu ataylab qo'llanilgan she'riy usul – uch band orasida ko'prik hosil qiladi va she'rga halqa shakli beradi. Bu ijodiy qaror tarjimaning professional darajasini ko'rsatadi.

**"Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash" – "No life have I seen like mine":** Bu misrada inversiya (to'ntirilgan so'z tartibi) qo'llanildi. Odatiy inglizcha tartib "*I have seen no life like mine*" bo'lar edi. "*No life have I seen like mine*" – klassik ingliz she'riyatidagi inversiya uslubi bo'lib, misraga alohida kuch va ta'sirchanlik beradi.

**"Suydim, erkalandim, ayrildim, kuydim" – qisqa fe'lli misralar:** Har bir fe'l alohida misrada berildi. "*Suydim*" – "*I loved*", "*Erkalandim*" – "*I was cherished*", "*Ayrildim*" – "*I was parted*", "*Kuydim*" so'zida eng chuqur izlanish bo'ldi. "*I burned*" to'g'ri, lekin "*I smoldered*" – ichdan, sekin yonish ma'nosini beradi. "*Kuymoq*" o'zbek she'riyatida ham shu ma'noda – ichki iztirob, sekin olov. "*Smoldered*" bu ruhni inglizchada eng to'liq ifodalaydi.

**"Izzat nima bildim" – "I knew what dignity is":** "Izzat" so'zi o'zbek tilida qadr, hurmat, e'zoz ma'nolarini beradi. "*Honor*", "*dignity*", "*worth*" variantlari ko'rib chiqildi. "*Dignity*" eng she'riy va chuqur ma'noli variant sifatida tanlandi – insonning o'z qadrini bilishi, o'zini e'zozlashi.

**"Shuda bir yashash" – "That is what living is":** Yakuniy misra she'rning falsafiy xulosasi. "*That is a life worth living*", "*That alone is living*", "*This is living*", "*That is what living is*" variantlari taqqoslandi. "*That alone is living*" varianti she'riy jihatdan kuchli, lekin "*alone*" so'zi yolg'izlik ma'nosini berishi mumkin – bu asl she'r ruhiga zid.

“That is what living is” – aniq, kuchli, falsafiy va to‘liq. Hayotning mazmunini bir misrada ifodalab beradi.

Ushbu tarjima jarayonida quyidagi asosiy tamoyillar aniqlandi:

**Birinchi tamoyil – Arxaik so‘zlar she’rga mos keladi:** She’riyatda “bore”, “bygone”, “enfolded”, “gave no heed” kabi arxaik ingliz so‘zlari zamonaviy so‘zlarga qaraganda she’riy jihatdan yuqoriroq turadi. Klassik o‘zbek adabiyoti an’analarida yozilgan she’rni tarjima qilishda bunday so‘zlar matnning klassik ruhini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi.

**Ikkinchi tamoyil – So‘zma-so‘z tarjima she’rni o‘ldiradi:** “Tabassum o‘rnida” ni “in the place of smiling” deb tarjima qilish grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo she’riy jihatdan og‘ir va sun‘iy. “Instead of smiling” esa tabiiy va oqimli. She’r tarjimasida ma’noga sodiqlik shaklga sodiqlikdan muhimroqdir.

**Uchinchi tamoyil – She’rda noodatiy birikmalar ishlaydi:** “Laughed radiantly” oddiy nutqda noodatiy tuyulishi mumkin, ammo she’riyatda bunday kutilmagan birikmalar ta’sirchanlikni oshiradi. **She’r – til normalaridan ijodiy chetlashishga ruxsat beriladigan badiiy janrdir.**

**To‘rtinchi tamoyil – Idiomalar ruhni saqlaydi:** “Head over heels” kabi ingliz idiomalarini qo‘llash she’rning hissiy kuchini saqlab qolishga yordam beradi. Tarjimon ikki tilning idiomalarini chuqur bilishi va ularni o‘rinli qo‘llay olishi lozim.

**Beshinchi tamoyil – Fe’l zamonini izchillik talab qiladi:** Bir she’r doirasida fe’l zamonini izchil saqlash muhim. Dastlab, “I fall head over heels” hozirgi zamonda qo‘llanilgan edi, keyinchalik butun bandning o‘tgan zamoniga moslashtirib “I fell” ga o‘zgartirildi. Bunday izchillik she’rning ichki mantiqiy birligini ta’minlaydi.

**Xulosa.** Zulfiyaxonimning she’rlarini ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni ko‘rsatdiki, she’r tarjimasini – bu faqat tilshunoslik emas, balki san’atdir. Muvaffaqiyatli she’r tarjimoni bir vaqtning o‘zida ham tilshunos, ham shoir bo‘lishi kerak. U asl she’rning qalbini his qilishi, ikki tilning she’riy imkoniyatlarini chuqur bilishi va har bir so‘z ustida sabr bilan ishlashi lozim. Ushbu tadqiqot ko‘rsatdiki, o‘zbek she’riyatini ingliz tiliga tarjima qilishda quyidagi yondashuv samarali: arxaik ingliz so‘zlaridan foydalanish, so‘zma-so‘z tarjimadan qochish, she’riy erkinlikdan unumli foydalanish, ingliz idiomalarini o‘rinli qo‘llash va fe’l zamonini izchil saqlash.

Zulfiyaxonimning she’ri ingliz tiliga tarjima qilinganida nafaqat so‘zlar, balki she’rning ruhi, hissi va falsafasi ham yetkazilishi mumkin ekanligini ushbu amaliy tajriba isbotladi. O‘zbek she’riyatining jahon adabiyotiga kirib borishi uchun bunday izlanishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

*Leafing through the book of my life, unconsciously,  
I bore no sorrow for all my bygone years.  
Instead of smiling, I laughed radiantly,*

*When it comes to love, I fell head over heels*

*Whether I wore silk, calico or brocade,  
I gave no heed, for my heart's wealth.*

*Life that enfolded me, precisely sol,  
Each epiphany bids a new verse.*

*I bore no sorrow for all my bygone years,  
No life have I seen like mine:*

*I loved,*

*I was cherished,*

*I was parted,*

*I smoldered,*

*I knew what dignity is –  
That is what living is.*

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Zulfiya Isroilova. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1985.
2. Bassnett, S. Translation Studies. – London: Routledge, 2002.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.
4. Eco, U. Experiences in Translation. – Toronto: University of Toronto Press, 2001.
5. Mirzayev, T. O'zbek she'riyatining tarjima muammolari. – Toshkent: Fan, 1997.
6. Frost, R. "Poetry is what gets lost in translation" – intervyu, 1959.

PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934